asosida jadal rivojlantirishga e'tibor qaratish, klaster usulidagi tashkiliy-texnologik tizimni yaratish va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga ilg'or usullarni joriy etish orqali tarmoqning jozibadorligini yanada oshirish, pillachilik tarmog'ida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va "O'zbekipaksanoat" uyushmasining O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tizimidagi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutini "O'zbekipaksanoat" uyushmasi muassisligida muassasa shaklidagi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti etib qayta tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. pillachilik tarmog'ida ilmiy-tadqiqot ishlarining strategik io'nalishlari va istiqbolli mavzularini belgilash, sohani jadal rivojlantirish va yuzaga keladigan dolzarb muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni tashkil etish bo'yicha uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish: seleksiya yutuqlarini keng sinovdan o'tkazish, tut ipak qurtining zoti va duragaylari, tut duragaylarining birlamchi urug'ligini rivojlantirish, hududlarning tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan xolda, ilg'or ilmiy ishlanmalar va intensiv agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish. pillachilik tarmog'idagi ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish, pillaga dastlabki ishlov berish va ularni saqlash usullarini takomillashtirish, tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish. pillachilik yo'nalishidagi fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar bo'yicha dasturlar ishlab chiqish. pillachilik tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etish, sohaga oid seminar va treninglar o'tkazish. pillachilik tarmog'ida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurt urug'i korxonasining muvaffaqiyatli ishlashi undagi ish jarayonlarini to'g'ri texnologik rejalashtirishga bog'liqdir. Ko'pchilik qishloq xo'jalik korxonalari bir tekis ishlaydigan sanoat korxonalaridan ishlarning mavsumiyligi bilan farq qiladi. Asosiy vazifalardan biri ishlarni texnologik tashkil etishda ish mavsumini maksimal cho'zish yoki yillik topshiriqni yil ichida ikki-uch mavsumga bo'lishdan iboratdir. Masalan, respublikamizdagi qurt urug'i korxonalari urug' tayyorlashdagi har bir yillik topshiriqni bitta bahorgi mavsumda bajaradi. Shu sababli ko'p mehnat talab qiluvchi texnologik jarayonlarni bajarish uchun ko'plab mavsumiy ishchilarni jalb qilishga to'g'ri keladi.

Shunday sharoitda tayyorlash muddatini cho'zish uchun hamma imkoniyatlardan iloji boricha maksimal foydalanish yoki yillik ish topshirig'ini bir mavsumda emas, balki 2-3 mavsumda bajarishga o'rganish kerak. Mavsumiy ish muddatining uzaytirilishi mehnat resurslari keskinligini kamaytirish bilan birga katta iqtisodiy afzalliklarga ega: asbob-uskunalaridan foydalanish ortadi, ishlab chiqarish binolari va mashinalardan foydalanish koeffitsiyenti oshadi hamda asosiy fondlar uchun amortizatsion ajratmalarning solishtirma ulushi kamayadi.

Shu bilan birga, urug'chilik korxonalarida ish jarayonidagi umumiy keskinlik kamayadi, bu esa tayyorlanayotgan urug'larning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga alohida e'tibor berish imkoniyatini yaratadi. Qat'iy muddatlarda bajariladigan ishlarni texnologik rejalashtirish, mavsumiy ishlarning (asosan kapalaklar bilan ishlash) muddatini qisqartirish uchun rejali ishlarni amalga oshirish zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xasanova Rayxon Bozarovna Qarshi davlat texnika universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasida asistent / Хасанова Райхон Бозаровна Ассистент кафедры «Бизнес и управление» Каршинского государственного технического университета / Khasanova Raykhon Bozarovna Assistant of the

Department of Business and Management, Karshi State Technical University

► xasanova8874@gmail.com

■ 0009-0001-9011-4989

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, A., & Jo'rayev, M. Ipakchilik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston
2. Nishonov, A. Ipak qurti biologiyasi va seleksiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Boltaeva, M. Serikultura texnologiyalari va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Xolboyev, S. Qishloq xo'jaligida innovatsion boshqaruv. – Toshkent: IQTISOD-MARKAZ, 2018.
5. Axmedov N., Murodov S. Ipak gurti embriologiyasi, Toshkent, 1997.
6. Axmedov M., Murodov S. Ipak qurij ekotogiyasi va bogish agrotexnikasi,
7. Safarov, M., Ergashev, A. Ipakchilik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
8. O'rinboyev, R., Abdullayev, A. Ipak qurti biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
9. O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti materiallari – yillik ilmiy to'plamlar (2015–2024 y).

Hududlarni raqamli transformatsiyalash asosida inklyuziv iqtisodiy o'sishi

Zokirova Bahora Zokir qizi

Инклюзивный экономический рост на основе цифровой трансформации регионов

Zokirova Bahora Zakir kizi

Inclusive economic growth based on the digital transformation of regions

Zokirova Bahora Zakir kizi

Received: December 12, 2025 Revised: December 14, 2025

■ Accepted: December 15, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada hududlarni raqamli transformatsiya qilish jarayoni va uning inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar yordamida hududlarda samaradorlik, shaffoflik va iqtisodiy tenglikni oshirish imkoniyatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, infratuzilma, kadrlar yetishmasligi va raqamli tafovut kabi muammolar ham ko'rsatib o'tiladi. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston uchun xulosalar ishlab chiqiladi.
- **Kalit** so'zlar: raqamli transformatsiya, inklyuziv o'sish, iqtisodiy tenglik, hududiy rivojlanish, innovatsiya, barqaror taraqqiyot.
- **Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс цифровой трансформации регионов и его влияние на инклюзивный экономический рост. Отмечаются возможности цифровых технологий в повышении эффективности, прозрачности и экономического равенства на территориях. Одновременно выявляются проблемы, связанные с инфраструктурными ограничениями, нехваткой кадров и цифровым разрывом. На основе международного опыта сделаны выводы для регионального развития Узбекистана.
- **Ключевые** слова: цифровая трансформация, инклюзивный рост, экономическое равенство, региональное развитие, инновации, устойчивое развитие.
- **Abstract:** This article analyzes the process of digital transformation of regions and its impact on inclusive economic growth. It highlights the opportunities of digital technologies in enhancing efficiency, transparency, and equity across territories. At the same time, the study identifies key challenges such as infrastructure gaps, lack of skilled human resources, and the digital divide. Based on international experience, relevant conclusions are drawn for Uzbekistan's regional development.
- **Keywords:** digital transformation, inclusive growth, economic equity, regional development, innovation, sustainable development.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bu – raqamli transformatsiya hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki yangi bozorlarni shakllantiradi, davlat boshqaruvi tizimini optimallashtiradi va aholining turmush darajasini yaxshilaydi. Raqamli iqtisodiyot orqali hududlarda iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Inklyuziv iqtisodiy o'sish konsepsiyasi BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bilan hamohang bo'lib, aholining barcha qatlamlarini, jumladan, yoshlar, ayollar, nogironlar va chekka hudud aholisini iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilishni ko'zda tutadi. Bu jarayon hududlarni raqamli transformatsiya qilish orqali yanada samarali kechadi.

O'zbekiston sharoitida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hududlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiyotning barcha

sohalarida inklyuzivlikni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu bois, mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ilmiy izlanish jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanilgan:

Nazariy-uslubiy asoslar. Raqamli transformatsiya va inklyuziv iqtisodiy o'sish tushunchalari xalqaro ilmiy maqolalar, BMT, Jahon banki, OECD va ITU hisobotlari asosida tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari metodologiyaning huquqiy asosini tashkil etdi.

Hududiy-iqtisodiy tahlil. Hududlar kesimida raqamli transformatsiya jarayonlari solishtirma statistik ko'rsatkichlar orqali o'rganildi. Urbanizatsiya jarayonlari, internet qamrovi, elektron hukumat xizmatlari, startap ekotizimlari va investitsion loyihalar misolida hududlar o'rtasidagi tafovutlar tahlil qilindi.

1-jadval.

Raqamli transformatsiya ko'rsatkichlari (O'zbekiston, 2019-2025)

T/r	Ko'rsatkich	Yillar kesimida				Izoh
		2019	2021	2023	2025	
1.	Internetga kirish (aholi)	~82,6%*	65,8%*	94,2%*	Qishloqlarda 93,9%*	Internet penetratsiyasi yil sayin o'sib bormoqda (*O'zbekiston statistikasi)
2.	Qishloq hududlarida internet qamrovi	–	~72%*	~93%*	~93,9%*	So'nggi yillarda qishloqlarda internet sezilarli o'sdi
3.	ICT/YAIMdagi ulushi	1.8%	–	3.4%	–	ICT sektorining YAIMdagi ulushi oshdi (2016-2023)
4.	Elektron savdo (faol bizneslar)	–	–	~3x ko'paydi	–	Ro'yxatga olingan elektron savdo korxonalar soni 5 yilda uch barobar oshdi
5.	E-hukumat reytingi – EGDI pozitsiya*	–	–	99 pozitsiya pastga ko'tarildi	–	2022-yilda EGDI bo'yicha 195 mamlakat ichida 69-o'rin
6.	Davlat organlarida raqamli transformatsiya reytingi	–	–		*_	43+38+14 = 95 ta tashkilot reytingda baholangan (2023)

7.	E-hukumat xizmatlari ulushi	~56% (2022)	–	–	–	2022-da e-xizmatlar umumiy davlat xizmatlarining 56%ni tashkil qildi
8.	Mobil internet qamrovi	–	–	–	~98-99%*	Mobil tarmoq qamrovi juda yuqori darajaga yetdi

*EGDI — Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (e Government Development Index)

Internet qamrovi 2019–2025 yillar davomida internet foydalanuvchilari ulushi sezilarli oshdi. Ayniqsa qishloq hududlarida penetratsiya 70%dan 93%gacha yetdi, shuning natijasida raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaydi. 2. ICT sektori salohiyati ICT sektorining YAIMdagi ulushi oshdi, bu raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga hissasini ko'rsatadi. Elektron savdo bilan shug'ullanuvchi bizneslar soni keskin ko'paydi va raqamli savdo aylanmasi oshmoqda. E hukumat xizmatlari E hukumat ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro reyting oshdi — bu davlat xizmatlari samaradorligini va ularning raqamli shaklda taqdim etilishini ko'rsatadi. 2022 yilda elektron xizmatlar davlat xizmatlarining katta qismini tashkil qildi. Ўзбекистан Mobil internet va infratuzilma Mobil internet qamrovi deyarli barcha hududlarda mavjud bo'lib, bu raqamli xizmatlarga kirishni ancha yengillashtirdi. Empirik yondashuv. Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlari asosida amaliy natijalar qayd etildi. Aholining raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi, hududlarda kichik va o'rta biznesning raqamli transformatsiyaga moslashuvi o'rganildi. Bu metodologik yondashuvlar yordamida hududlarni raqamli transformatsiya qilish va inklyuziv iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya hududiy iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy faoliyatni shaffoflashtirishga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, elektron hukumat xizmatlarining joriy etilishi fuqarolarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, hududlarda raqamli startap ekotizimlari shakllanib, kichik va o'rta biznesning yangi raqamli platformalarga integratsiyasi tezlashmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida inklyuzivlikning ta'minlanishi muhim natijalardan biridir. Internet qamrovining kengayishi natijasida chekka hududlarda ham

ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga masofadan turib kirish imkoniyati yaratildi. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ayollar va yoshlar bandligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, elektron ta'lim platformalari orqali minglab talabalar oliy ta'lim kurslariga ulanmoqda, nogironligi bo'lgan shaxslar esa masofaviy ish o'rinlari orqali iqtisodiy faoliyatga jalb qilinmoqda.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning hududiy taqsimoti bir xil emas. Toshkent shahri va viloyatlarida raqamli infratuzilma yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan bo'lsa-da, ayrim chekka hududlarda internet tezligi, texnik infratuzilma va kadrlar salohiyati yetarli emas. Bu esa hududlar o'rtasida raqamli tengsizlikni yuzaga keltirmoqda. Muhokamalardan kelib chiqadiki, bu tafovutni kamaytirish uchun davlat tomonidan hududiy raqamli rivojlanish dasturlarini yanada kuchaytirish zarur.

SWOT tahlil natijalari. Kuchli tomonlar: davlat siyosatining qo'llab-quvvatlashi, yoshlarning innovatsiyaga qiziqishi, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari. Zaif tomonlar: ayrim hududlarda raqamli infratuzilmaning sustligi, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi. Imkoniyatlar: "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish, xalqaro tajribani joriy etish, texnoparklar va IT-parklarda yangi loyihalarni ishga tushirish. Tahdidlar: kiberxavfsizlikning zaifligi, raqamli tengsizlik ortidan ijtimoiy tafovutlarning kuchayishi, global iqtisodiy inqirozning ta'siri.

Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, hududlarni raqamli transformatsiya qilish inklyuziv o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu jarayonning samaradorligi hududlar kesimidagi imkoniyatlar va resurslar taqsimotiga bog'liq. Muhokamarlar davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Raqamli iqtisodiyot inklyuziv o'sish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo uni amalga oshirish uchun hududiy strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.
- Hududlarda raqamli savodxonlikni oshirish orqali aholini yangi iqtisodiy faoliyat turlariga jalb etish mumkin.
- Innovatsion startaplar va kichik biznesni

qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy iqtisodiyot barqaror o'sishga erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarni raqamli transformatsiyalash jarayoni zamonaviy iqtisodiyotda inklyuziv o'sishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholini raqamli savodxonlikka jalb etish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga sezilarli darajada xizmat qiladi.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinarkan, elektron hukumat tizimlari, raqamli to'lov xizmatlari, masofaviy ta'lim va sog'liqni saqlash platformalarining joriy etilishi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ham ta'minlaydi. Bu jarayon aholi turmush darajasini yaxshilash bilan bir qatorda, jamiyatda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, inklyuziv o'sish omillari raqamli transformatsiya orqali yanada kuchaymoqda. Masalan, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholi vakillari, jumladan yoshlar va ayollar, raqamli platformalar orqali mehnat bozoriga faol jalb qilinmoqda. Shu tariqa, raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat tamoyillarini ham mustahkamlaydi.

Uchinchidan, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlarni bartaraf etish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayrim hududlarda yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy texnologik infratuzilma va malakali IT-kadrlarning yetishmasligi raqamli transformatsiya jarayonini cheklab qo'ymoqda. Shuning uchun davlat siyosatida "raqamli tengsizlik"ni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

To'rtinchidan, xalqaro tajriba ham ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiyani inklyuziv o'sish bilan uyg'unlashtirish uchun davlat, xususiyl sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasida samarali hamkorlik talab etiladi. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo va Skandinaviya davlatlarida hududiy raqamli dasturlar orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy tenglik ham ta'minlangan.

O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda qator dasturlar amalga oshirilmoqda, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida IT-infratuzilmani rivojlantirish,

startaplarni qo'llab-quvvatlash va hududlarda elektron xizmatlarni kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu strategiyaning samarali amalga oshirilishi inklyuziv o'sishga keng yo'l ochadi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarni raqamli transformatsiyalash orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash — bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikning ham kafolatidir. Shu sababli, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy doiralarda ushbu jarayonni kompleks qo'llab-quvvatlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish va aholining barcha qatlamlarini raqamli iqtisodiyot imkoniyatlariga jalb etish zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Zokirova Bahora Zokir qizi Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi / Зокирова Бахора Закир кызы, независимый научный сотрудник Каршинского государственного технического университета / Zokirova Bakhora Zakir kyzy, independent researcher at Karshi State Technical University

► bahora86@gmail.com

■ 0009-0002-3532-1747

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Toshkent, 2020.
2. World Bank. Digital Economy for Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington DC, 2021.
3. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. OECD Publishing, Paris, 2019.
4. UNDP. Inclusive Growth and Development: Policy Innovations for a Changing World. New York, 2018.
5. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha konsepsiya". Toshkent, 2022.
7. International Monetary Fund (IMF). Fostering Inclusive Growth in the Digital Age. IMF Staff Discussion Note, 2020.
8. Castells, M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2010.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va hukumat dasturlari (2020–2023 yillar).

Mintaqa va
tarmoqlar
iqtisodiyoti

Экономика региона
и отрасли

Economy of the
region and industry

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klasterlash mexanizmi va unga kichik biznes faoliyatini jalb etish

Beknazarova Manzura Baxtiyorovna

Механизм кластеризации в развитии экономики региона и вовлечение в нее малого бизнеса

Бекназарова Манзура Бахтиёровна

Clustering mechanism in the development of the regional economy and the involvement of small businesses in it

Manzura Bakhtiyorovna Beknazarova

Received: December 1, 2025 Revised: December 6, 2025

■ Accepted: December 9, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada mintqa iqtisodiyotida klasterlash mexanizmi, uning tarkibiy tuzilmalari va kichik biznesni klaster tizimiga jalb etishning nazariy-huquqiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Kichik biznesning klasterga qo'shilishi hudud iqtisodiyotida modernizatsiya, raqobatbardoshlik va bandlikning o'sishiga olib kelishi asoslab berilgan.
- **Kalit so'zlar:** klaster, klasterlash mexanizmi, kichik biznes, kooperatsiya, mintaqaviy rivojlanish, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik.
- **Аннотация:** В статье проанализирован механизм кластеризации в экономике региона, ее структурные структуры и Теоретико-правовые основы и практические механизмы вовлечения малого бизнеса в кластерную систему. Обосновано, что включение малого бизнеса в кластер приведет к модернизации, повышению конкурентоспособности и занятости в экономике региона.
- **Ключевые слова:** кластер, механизм кластеризации, малый бизнес, кооперация, региональное развитие, инновации, экономическая эффективность.
- **Abstract:** The article analyzes the mechanism of clustering in the economy of the region, its structural structures and the theoretical-legal basis for attracting small businesses to the cluster system, as well as practical mechanisms. The inclusion of small businesses in the cluster is justified by the fact that it leads to modernization, competitiveness and growth of employment in the territory's economy.
- **Keywords:** cluster, clustering mechanism, small business, cooperative, regional development, innovation, economic efficiency.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llashni talab etadi. Shunday mexanizmlardan biri - klasterlash bo'lib, u mintaqaviy darajada iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh modelini shakllantiradi. Kichik biznesni klaster tizimiga jalb etish esa ushbu tuzilmaning to'liq ishlashini ta'minlovchi asosiy omildir.

Klaster - bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'langan ishlab chiqaruvchi korxonalar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda infratuzilma obyektlarining integratsiyalashgan tizimidir.

Klasterning asosiy belgilari:

hududiy yaqinlik;

ishlab chiqarish kooperatsiyasi;

resurslardan umumiy foydalanish;

bilim va innovatsiya oqimi;

umumiy brend yoki marketing modeli.

Klasterlarning asosiysi - mintaqaviy rivojlanish. Bu tizim mintaqada iqtisodiy faollikni oshirish, hududiy resurslarni samarali boshqarish va tarmoqlararo hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Mintaqada klasterlar shakllanishi iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirishga, uning yuqori darajada ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Klasterlar, odatda, maxsus tarmoqlarda, masalan, qishloq xo'jaligi, sanoat, axborot texnologiyalari, to'qimachilik va boshqa sohalarda shakllanadi. Klasterlar asosan uchta asosiy xususiyatga ega:

Geografik yaqinlik: Klaster a'zolari bir-biriga yaqin joylashgan bo'lib, o'zaro hamkorlik qilishlari osonlashadi.

Tarmoqlararo integratsiya: Klasterlar o'z ichida bir nechta tarmoq va sohalarni birlashtiradi, bu esa samarali iqtisodiy aloqalarni yaratadi.

Innovatsiya va raqobat: Klasterlar raqobatni oshiradi va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga turtki beradi.

Klasterlash tizimi, shuningdek, resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hududda klasterlarning rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ijtimoiy farovonlikni oshirishga olib keladi.

Klasterlash tizimi va hududiy bandlik: O'zaro bog'liqlik. Hududiy bandlikni oshirishda klasterlash tizimi alohida o'rin tutadi. Bandlik - bu aholining mehnatga layoqatli qismining iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi. Mintaqada klasterlash tizimini rivojlantirish orqali quyidagi ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin:

Yangi ish o'rinlari yaratish. Klasterlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo tarmoqlarini rivojlantiradi, bu esa hududda yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati yoki axborot texnologiyalari sohasida klasterlarning rivojlanishi yangi mutaxassisliklar va xizmatlar sohalarni yaratadi.

Mahalliy resurslardan samarali foydalanish. Klasterlash tizimi, hududiy resurslarni birlashtirib, ularni yanada samarali boshqarishga imkon yaratadi. Bu yerda asosan mintaqaning iqtisodiy va mehnat resurslari to'plangan bo'ladi va buning natijasida hududiy bandlik darajasi ortadi.

Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlari. Klasterlar doirasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha ixtisoslashgan ta'lim muassasalari ham tashkil etilishi mumkin. Bu orqali yangi kasb-hunarlarini o'rganishga va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish imkoniyati tug'iladi. Natijada, aholi bandligi darajasi ortadi.

Raqobatni oshirish va innovatsiyalarni tatbiq etish. Klasterlash tizimi raqobatni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga turtki beradi. Bu esa hududiy iqtisodiyotning tez o'sishiga, yangi biznesni rivojlantirishga, shu bilan birga bandlikning o'sishiga xizmat qiladi.

Tarmoqlararo hamkorlikni rivojlantirish. Klasterlar biror tarmoqdagi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, bir tarmoqdagi bandlikni yaxshilashga va boshqa sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Misol uchun, agrar sektorda klasterlash agrar ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratish uchun imkoniyat yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida mintaqada klasterlash tizimini rivojlantirish yo'llari: O'zbekistonda mintaqaviy bandlikni oshirishda klasterlash tizimini rivojlantirish uchun bir nechta muhim qadamlar ko'rilishi lozim:

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash: Klasterlar asosan kichik va o'rta biznesning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. O'zbekiston hukumati kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu sohani qo'llab-quvvatlash, shuningdek, bandlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tarmoq va soha bo'yicha klasterlarning shakllanishini rag'batlantirish: Turli sohalarda bo'yicha klasterlar tashkil etish uchun hukumat tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Misol uchun, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik sanoati, axborot texnologiyalari kabi sohalarda klasterlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish orqali hududiy bandlikni

oshirish mumkin.

Ta'lim va kasb-hunar o'qituvchilarining malakasini oshirish: Klasterlash tizimi doirasida ta'lim tizimi va kasb-hunar o'quv muassasalarining imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu bilan klasterlar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari yaratilib, bandlik darajasi yanada oshadi.[5]

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Klasterlar o'z ichida yangi texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llash

imkoniyatlariga ega. O'zbekiston hududlarida texnologik yondashuvlar va innovatsiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Mintaqa iqtisodiyotida klasterlash mexanizmi. Klasterlash mexanizmi – bu hududda korxonalar o'rtasidagi integratsiya, kooperatsiya va resurs almashinuvi jarayonlarini boshqarish usullari majmuasidir.



Kichik biznesni klasterga jalb etishning zarurati

Kichik biznes klaster infrastrukturasi moslashuvchan, tez rivojlanadigan va innovatsion komponenti hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotda kichik biznesning klasterga integratsiyalashuvi quyidagi afzalliklarni yaratadi:

Iqtisodiy afzalliklar: yetkazib berish zanjirining to'liq shakllanishi, ishlab chiqarish tannarxining tushishi, birgalikdagi xarid tufayli xomashyo narxining arzonlashuvi, eksport salohiyatining oshishi.

Ijtimoiy afzalliklar: bandlikning ortishi, hudud daromadlarining ko'payishi, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish.

Innovatsion afzalliklar: startaplar sonining ko'payishi, bilimlar oqimi (knowledge spillover), texnologiya transferining jadallashuvi.

Kichik biznesni klasterga integratsiyalash mexanizmlari

Kichik biznesni klasterga jalb etishning zarurati

quyidagilar bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari, eksport xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Undan tashqari kooperatsiya platformalarini yaratish, elektron kooperatsiya birjalari, klaster ishtirokchilari uchun yagona xarid tizimi, hamkorlik yarmarkalarini kuchaytirish ham kichik biznesni klasterga integratsiyalash mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashda texnoparklar, laboratoriya va sertifikatlash markazlari, agrologistika markazlari bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari: Quyida mintaqa iqtisodiyoti uchun klaster-kichik biznes integratsiyasining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan.

KO'RSATKICHLAR	KLASTERGACHA	KLASTERDAN SO'NG	O'SISH (%)
O'rtacha ishlab chiqarish hajmi (mln so'm)	250	410	64%
Ish o'rinlari soni	560	890	59%
Eksportga chiqarilgan mahsulot (mln so'm)	90	160	78%

Tahlil: Jadvaldan ko'rinadiki, klasterga kirgan kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati sezilarli o'sish kuzatilgan.

Klasterlash jarayonida kichik biznesni faol jalb etish mintaq iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshiradi. Biroq quyidagi muammolar mavjud:

- kooperatsiya madaniyatining yetarli shakllanmaganligi;
- kichik biznesda innovatsion salohiyatning pastligi;
- kredit olishdagi byurokratik to'siqlar.

Bu muammolarni davlat yordami, infratuzilmani rivojlantirish va raqamli platformalar orqali hal etish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqa iqtisodiyotida klasterlash mexanizmi hududni modernizatsiya qilish, iqtisodiy resurslarni optimallashtirish va kichik biznesni jadal rivojlantirishning samarali vositasidir. Kichik biznesning klasterlarga qo'shilishi kooperatsiyani kuchaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va eksport salohiyatini kengaytiradi. Shu sababli klaster-kichik biznesintegratsiyasi mintaqaviy rivojlanish strategiyasining asosiy bo'g'ini bo'lib qoladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Beknazarova Manzura Baxtiyorovna Qarshi davlat Texnika universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasida assistenti / Бекназарова Манзура Бахтиёровна Каршинский государственный технический университет Ассистент кафедры бизнеса и менеджмента / Manzura Bakhtiyorovna Beknazarova

Karshi State Technical University Assistant Professor,
Department of Business and Management

► beknazarovamanzura3570@gmail.com

■ 0009-0002-9219-5409

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Porter M. Clusters and Competition. Harvard Business Review.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari.
3. "Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari.
5. Ilmiy maqolalar, iqtisodiy tahlillar, mintaqaviy statistika ma'lumotlari.
6. Gulomov, K. M., & Turaeva, D. S. (2020). Klasterlash va iqtisodiy rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.
7. Sufianova, M. Sh. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotida klasterlash tizimi va uning bandlikka ta'siri. Iqtisodiyot va biznes, 6, 44-51.
8. OECD (2019). Clusters and Regional Development. Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD), Paris: OECD Publishing.
9. Shukurov, B. R. (2022). Klasterlash tizimining rivojlanish strategiyalari: O'zbekiston misolida. Toshkent: Iqtisodiyot va Statistika Instituti.

Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini O'zbekistonda joriy etishning iqtisodiy va ekologik samarasi

Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi

Экономическая и экологическая эффективность внедрения принципов циркулярной экономики в Узбекистане

Рустамова Сарвиноз

Economic and environmental effectiveness of implementing circular economy principles in Uzbekistan

Rustamova Sarvinoz

Received: December 1, 2025 Revised: December 6, 2025

■ Accepted: December 9, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya:** O'zbekistonda aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali erishiladigan iqtisodiy tejamlilik va ekologik foydalarni tahlil qiladi. Aholi, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida o'tkazilgan kuzatuvlar hamda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida aylanma yondashuvning chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslarni tejash va yangi ish o'rinlari yaratishdagi potentsiali baholanadi. Shu bilan birga, moliyaviy cheklovlar, me'yoriy hujjatlarning yetarli emasligi va infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi to'siqlar ham aniqlangan. Natijalar aylanma iqtisodiyotni milliy darajada tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.
- **Kalit so'zlar:** aylanma iqtisodiyot; barqaror rivojlanish; qayta ishlash; chiqindilarni boshqarish; iqtisodiy tejash; ekologik barqarorlik; yashil iqtisodiyot; resurs samaradorligi
- **Аннотация:** В исследовании анализируется экономическая выгода и экологические преимущества внедрения принципов циркулярной экономики в Узбекистане. На основе наблюдений в сферах населения, промышленности и сельского хозяйства, а также официальной статистики оценивается потенциал циркулярного подхода в снижении отходов, сохранении природных ресурсов и создании новых рабочих мест. В то же время выявлены ключевые барьеры: финансовые ограничения, недостаточная нормативно-правовая база и слабо развитая инфраструктура переработки. Полученные результаты подтверждают необходимость системного внедрения циркулярной экономики на национальном уровне.
- **Ключевые слова:** циркулярная экономика; устойчивое развитие; переработка; управление отходами; экономия ресурсов; экологическая устойчивость; зелёная экономика; эффективность использования ресурсов

- **Abstract:** This study examines the economic savings and environmental benefits of implementing circular economy principles in Uzbekistan. Based on field observations across household, industrial, and agricultural sectors, as well as official statistical data, the research assesses the potential of circular approaches to reduce waste, conserve natural resources, and generate employment. Key barriers—including financial constraints, an underdeveloped regulatory framework, and insufficient recycling infrastructure—are also identified. Findings underscore the need for a systematic, nationwide strategy to scale up circular economy practices.
- **Keywords:** circular economy; sustainable development; recycling; waste management; resource efficiency; economic savings; green economy; environmental sustainability

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiy tizimlar tabiiy resurslarning tez borib qolishi, atrof-muhit ifloslanishi va iqlim o'zgarishlari kabi jiddiy muammolar bilan yuzlashmoqda. Shu sababli aylanma iqtisodiyot (circular economy) — chiqindi hosil qilmasdan, resurslarni qayta ishlatish, tiklash va qayta foydalanishga asoslangan tizim — dunyo bo'ylab keng qo'llanila boshlandi. O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni himoya qilish bilan uyg'unlashtirish maqsadida aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga harakat qilmoqda. Ushbu maqolada aylanma iqtisodiyotning O'zbekistondagi amaliy qo'llanilishi, uning iqtisodiy samaradorligi hamda ekologik ta'siri tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aylanma iqtisodiyot falsafasi 1970-yillarda sanoat ekologiyasi g'oyalari bilan shakllangan bo'lib, so'nggi o'n yilda ayniqsa amaliy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida keng tarqaldi. Ellen MacArthur Foundation (2015) tomonidan taklif etilgan "uchta tamoyil" (1) foydalanish va chiqarish jarayonlarida chiqindilarni oldindan bartaraf etish; (2) mahsulotlar, komponentlar va materiallarning foydali hayotini maksimal uzun qilish; (3) tabiiy tizimlarni tiklash bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning "yashil o'tish" strategiyasining asosini tashkil qiladi [1]. O'zbekiston kontekstida, Ismoilov (2022) paxta sanoatida aylanma yondashuvni joriy etish orqali sovuq suv iste'molini 20%, tuproqqa kimyoviy o'g'it solishni esa 35% kamaytirish mumkinligini namoyon qildi [2]. Bu natijalar aylanma iqtisodiyotning nafaqat chiqindilarni kamaytirish, balki resurslarni samarali boshqarish orqali iqtisodiy tejashga ham xizmat qilishini ko'rsatadi. Jahon banki (2024) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yillik 12,5 million tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladi, ulardan faqat 8% qayta ishlanadi bu Yevropa Ittifoqidagi 48% ga nisbatan juda past ko'rsatkichdir [3]. Mamlakatda plastik,

metall va qog'oz qayta ishlash infratuzilmasi rivojlanayotgan bo'lsada, uning quvvati hali ham so'rovga javob bera olmaydi. "Yashil iqtisodiyot" rivojlanish strategiyasi (2023) doirasida O'zbekiston 2030-yilgacha aylanma iqtisodiyotni barcha sanoat tarmoqlariga kiritishni rejalashtirmoqda [4]. Biroq, ushbu strategiya asosan katta korxonalarga qaratilgan bo'lib, mikro va kichik korxonalar uchun amaliy mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yevropa tadqiqotlari ham aylanma modellarni qo'llash orqali korxonalar o'rtacha 17% xarajat tejashga erishganligini ko'rsatadi [5]. Biroq, O'zbekiston kabi rivoqlanayotgan mamlakatlarda bunday o'lchovlar hali keng qamrovli tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aralash usul (qualitative + quantitative) qo'llangan. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi, Statistika agentligi va Jahon bankining 2020–2024-yillardagi rasmiy ma'lumotlari foydalanildi. Shuningdek, Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridagi 10 ta korxonaga — qayta ishlash, qurilish materiallari va paxta sanoati sohasidagi — maydon tashriflari va mutaxassislariga suhbatlar o'tkazildi. Iqtisodiy ta'sirni baholash uchun chiqindi boshina xarajatlarni kamaytirish va qayta ishlangan xom ashyodan foydalanish orasidagi tejash, ekologik ta'sir esa karbon izi (carbon footprint) va suv iste'moli asosida tahlil qilindi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda aylanma iqtisodiyotni joriy etish jarayoni asosan to'rtta sohada qishloq xo'jaligi, qurilish, sanoat va maishiy chiqindilarni boshqarishda amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligida, xususan paxta yetishtirishda, paxta tolasi qoldiqlaridan bioetanol, kompost va qog'oz ishlab chiqarish tajribalari joriy etildi. Jizzax viloyatidagi "GreenAgro" loyihasi doirasida 2023-yilda 1200 tonna paxta chiqindisi

qayta ishlandi, bu 1500 tonna karbon izini kamaytirishga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonalari aylanma texnologiyalarga kirish xarajatlarini qoplashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Qurilish sohasida qayta ishlangan plastik va betondan aralash materiallar ishlatilmoqda. Toshkentdagi "EcoStroy" korxonasi 2024-yilda qurilish loyihalarining 30% uchun qayta ishlangan xom ashyodan foydalangan. Natijada xom ashyo xarajatlari 22% kamaydi, loyiha muddati esa 7% qisqardi. Biroq, davlat

standartlari hali ham qayta ishlangan materiallarni rasman sertifikatlash tizimini to'liq qamrab olmagan. Maishiy chiqindilar bo'yicha 2023-yilda Toshkent shahrida "Green City" loyihasi doirasida 50 ta aholi uyi chiqindilarini ajratish tizimi joriy etildi. Dastlabki natijalar shuni ko'rsatdiki, qatnashuvchi oilalarning 68% ijobiy baholagan, lekin shahar miqyosida tizimning keng tarqalishiga infrastruktura zaifligi to'sqinlik qilyapti.

1-jadval.

Aylanma iqtisodiyotni joriy etishdagi asosiy to'siqlar [1].

Nº	TO'SIQ TURI	MAZMUNI	OQIBATLARI
1	Moliyaviy	Aylanma iqtisodiyot loyihalari yuqori boshlang'ich investitsiya talab qiladi, moliyaviy manbalar cheklangan	Loyihalar sekin boshlanadi yoki umuman amalga oshirilmaydi
2	Normativ-huquqiy	Qayta ishlangan mahsulotlar uchun aniq standartlar va soliq imtiyozlari yetarli emas	Biznes uchun rag'bat past, investitsiya xavfi yuqori
3	Raqamli va texnologik	Zamonaviy monitoring, hisobga olish va boshqaruv texnologiyalari yetishmaydi	Resurslardan foydalanish samarasiz, shaffoflik past

1-jadval shuni ko'rsatadiki, aylanma iqtisodiyotni keng joriy etish jarayonida moliyaviy, normativ-huquqiy hamda raqamli-texnologik to'siqlar o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi aylanma loyihalarning boshlanishini sekinlashtirsa yoki ularning amalga oshirilishini cheklasa, normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi biznes subyektlari uchun rag'batni pasaytirib, investitsiya xavfini oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli va texnologik infratuzilmaning zaifligi resurslardan samarali foydalanish hamda jarayonlar shaffofligini ta'minlashga to'sqinlik

qilmoqda. Mazkur to'siqlarni kompleks va tizimli bartaraf etish aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqot natijalari aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali O'zbekistonda quyidagi iqtisodiy va ekologik samaralarga erishish mumkinligini ko'rsatdi:

2-jadval.

Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning O'zbekistondagi iqtisodiy va ekologik samaralari (2024–2030 yillar prognozi) [2]

KO'RSATKICH	HOZIRGI HOLAT (2024)	2030-YILGA NISBATAN BASHORAT
Qattiq chiqindilardan qayta ishlanadigan ulushi	8%	35–40%
Suv iste'moli (qishloq xo'jaligida)	100% (bazaviy)	–18%
Xom ashyo xarajatlari (o'rtacha)	100%	–25%
Yillik karbon izi (million t CO ₂ ekv.)	121	–15%
Yangi ish o'rinlari (aylanma iqtisodiyot sohasida)	5	50,000+

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aylanma iqtisodiyotni tizimli joriy etish resurs tejash, ish o'rinlarini yaratish va karbon chiqindilarni kamaytirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va davlat tomonidan ta'minlangan moliyaviy stimullar (grantlar, arzon kreditlar, soliq imtiyozlari) samaradorlikni 2–3 barobar oshirishi mumkin. Aholi, biznes va davlat o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlik modeli aylanma iqtisodiyotni muvaffaqiyatli joriy etishning kalit sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aylanma iqtisodiyot O'zbekiston uchun nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ham samarali yo'lidir. Hozirgi kichik miqyosli loyihalar ijobiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, milliy darajada tizimli integratsiya — qonun hujjatlari, ta'lim, infratuzilma va moliyaviy stimullar orqali — amalga oshirilmasa, kutilgan ta'sirga erishish qiyin bo'ladi. Shuning uchun aylanma iqtisodiyotni davlat dasturlarining asosiy qismi sifatida kiritish strategik ahamiyatga ega.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi, Qarshi davlat

universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi / Рустамова Сарвиноз Азизбек кызы, студентка экономического факультета Каршинского государственного университета / Rustamova Sarvinoz Azizbek kyzy, student of the Faculty of Economics of Karshi State University

► sarvinozr026@gmail.com

■ 0009-0004-2943-343X

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ellen MacArthur Foundation. (2015). Towards a Circular Economy: Business Rationale for an Economic Reset. Cowes, UK.
2. Ismoilov, B. (2022). Sustainable Cotton Production and Circular Models in Uzbekistan. Tashkent: Agro-Research Journal, No.
3. World Bank. (2024). Waste Management and Recycling Potential in Uzbekistan. Tashkent Office Report.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). "Yashil iqtisodiyot" rivojlanish strategiyasi 2023–2030.
5. Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2018). Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. *Resources, Conservation and Recycling*, 128, 228–235.

Qashqadaryo viloyatining rivojlanishidagi asosiy mintaqaviy muammolari

Kiyomova Kunduz Asrorovna

Основные региональные проблемы развития Кашкадарьинской области

Киёмова Кундуз Асроровна

Main regional development problems of the Kashkadarya region

Kiyomova Kunduz Asror

Received: December 1, 2025 Revised: December 6, 2025

■ Accepted: December 9, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Abstract.** The article examines the main regional challenges in one of Uzbekistan's territories – the Kashkadarya region. Key issues are analyzed through the service sector and the agricultural image of the region. Tourism is identified as one of the effective tools for increasing income levels and reducing unemployment in rural areas. Municipal regulations are presented as examples of how existing problems are addressed. In this context, preferences and tax incentives are considered the primary approach to solving difficulties. Furthermore, the transformation of regional economics is illustrated through methods of state regulation, describing the overall process of change.
- **Key words:** rural economy, transition, legislation, rural problems, tourism, local development of tourism, privileges, preferences
- **Аннотация.** В работе анализируются ключевые особенности региональных проблем на примере Кашкадарьинской области Узбекистана. Основное внимание уделено сфере услуг и аграрному образу региона. Туризм рассматривается как один из действенных инструментов повышения доходов населения и снижения уровня безработицы в сельской местности. Муниципальные нормативы приведены в качестве иллюстрации того, каким образом решаются актуальные задачи. В данном контексте преференции и налоговые льготы выступают главным механизмом преодоления трудностей. Кроме того, трансформация региональной экономики показана через методы государственного регулирования, что позволяет проследить общий процесс происходящих изменений..
- **Ключевые слова:** сельская экономика, переход, законодательство, проблемы села, туризм, местное развитие туризма, льготы, преференции.

- **Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning bir hududi – Qashqadaryo viloyatidagi asosiy mintaqaviy muammolar ko'rib chiqiladi. Asosiy masalalar xizmatlar sohasi va hududning qishloq xo'jalik qiyofasi orqali tahlil qilinadi. Turizm qishloq joylarda daromad darajasini oshirish va ishsizlikni kamaytirishning samarali vositalaridan biri sifatida tanlangan. Amaldagi muammolarni hal etish jarayonida mahalliy qoidalar misol sifatida keltirilgan. Bu yerda imtiyozlar va soliqlar yengilliklari muammolarni bartaraf etishning asosiy usuli sifatida ko'riladi. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'zgarishlar davlat tartibga solish usullari orqali namoyon etiladi. Umumiy o'zgarish jarayoni tasvirlangan.
- **Kalit so'zlar:** qishloq iqtisodiyoti, o'tish davri, qonunchilik, qishloq muammolari, turizm, turizmning mahalliy rivojlanishi, imtiyozlar, preferensiyalar

■ ВВЕДЕНИЕ

На ранних этапах развития экономической науки макроэкономика выступала основным инструментом анализа национального хозяйства. При этом региональные особенности не рассматривались как самостоятельный объект исследования, а потенциал территорий игнорировался при формировании отраслевой структуры. С течением времени ситуация изменилась: появление микроэкономики открыло путь к становлению региональной экономики. Таким образом, региональная экономика представляет собой синтез макро- и микроэкономических подходов, объединяя их ключевые характеристики и методы.

■ МЕТОДОЛОГИЯ

В исследовании применяются сравнительный метод и анализ теоретических концепций, что позволяет систематизировать и развить рассматриваемые идеи. Современная региональная экономика охватывает не только социально-экономические аспекты, но и законодательные, а также политические факторы. На муниципальном уровне важным шагом стало принятие Указа Президента Республики Узбекистан от 11 мая 2021 года «О мерах по ускоренному развитию сферы услуг» [1]. Документ направлен на модернизацию ряда отраслей и стимулирование занятости населения посредством внедрения готовых бизнес-планов и проектов. Создание единых сервисных центров способствует снижению бюрократических барьеров и облегчает запуск предпринимательских инициатив. Особое внимание уделяется развитию транспортных, финансовых, банковских, туристических и торговых услуг, особенно в сельских районах. По мнению А.Э. Ишмухамедова, регион сталкивается с проблемой устаревшей инфраструктуры: дороги, мосты и ирригационные системы требуют капитального

ремонта [2]. Кроме того, многие сельские территории испытывают трудности с доступом к воде, электричеству и газу.

Серьёзной проблемой остаётся чрезмерное использование водных ресурсов в сельском хозяйстве, что приводит к снижению уровня рек и подземных вод. В последние годы внедряется капельное орошение, а также проводится озеленение даже в неблагоприятных для растений местах. Однако сохраняется угроза эрозии почв, что снижает урожайность. Содержание гумуса в почве составляет всего 0,29–1,2% [3], что крайне мало для получения качественного урожая.

Для решения обозначенных проблем принимаются различные нормативные акты. В частности, Указ Президента «О дополнительных мерах по развитию сферы услуг» предусматривает налоговые льготы: единый социальный налог снижен до 1% при условии прозрачности кадрового учёта, а налог на недвижимость для малого бизнеса уменьшен на 90% [4]. Для крупных предприятий введены таможенные преференции, включая освобождение от пошлин на отдельные виды продукции.

Особый акцент сделан на поддержку туризма: организации, работающие в этой сфере, освобождены даже от налога на прибыль. На развитие туристической инфраструктуры выделено около 500 млрд сумов (примерно 4 млн долларов). Средства направлены на строительство и ремонт семейных гостевых домов, хостелов, кемпингов, экодомов и других объектов, что создаёт новые рабочие места и дополнительный доход для местных жителей.

